Педагогические возможности STEAM-технологий в развитии детей дошкольного возраста.....	551
Тошматова Мукаррам Джумановна	
Национальный характер в изображении русскоязычных писателей Узбекистана	554
Чернова Татьяна Алексеевна, Эшонкулов Бектош, Махаматсодиқов Билолиддин	



3-4-SINF TABIIY FAN DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Rustamova Nilufar

Guliston davlat pedagogika instituti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”
(boshlang’ich ta’lim) magistranti

Ilmiy rahbar: Nurumbekova Yorqinoy

Annotatsiya: Mazkur maqolada 3-4-sinf tabiiy fan darslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tabiiy fanlarni o’qitishda o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o’rni yoritilgan. Shuningdek, o’quvchilarning individual faoliyatini tashkil etish, mustaqil bilim olishga yo’naltirish va ta’lim samaradorligini oshirishda interaktiv vositalarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o’quvchilarning bilish faolligi, motivatsiyasi va fanlarni o’zlashtirish darajasini oshirishini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tabiiy fanlar, ta’lim jarayoni, interaktiv metodlar, ilmiy dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, individual yondashuv, ta’lim samaradorligi, o’quvchi shaxsi.

Abstract: This article analyzes the possibilities of using modern information and communication technologies in natural science lessons for grades 3–4 from a scientific and pedagogical perspective. The study highlights the role of digital technologies in developing students’ scientific worldview, enhancing logical and critical thinking skills, and improving the overall effectiveness of the teaching process. Particular attention is given to organizing individual learning activities, fostering independent learning, and increasing students’ cognitive engagement through interactive educational tools. The findings indicate that the integration of modern technologies into the educational process contributes to higher learning motivation, improved academic performance, and more effective mastery of natural science concepts.

Key words: information and communication technologies, natural sciences, educational process, interactive methods, scientific worldview, logical thinking, individual approach, learning effectiveness, student personality.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы возможности использования современных информационно-коммуникационных технологий на уроках естествознания в 3-4 классах. Рассмотрена роль цифровых технологий в формировании и расширении научного мировоззрения учащихся, развитии логического и критического мышления, а также в повышении эффективности учебного процесса. Особое внимание уделено организации индивидуальной деятельности учащихся, развитию их самостоятельности и познавательной активности посредством интерактивных средств обучения. Результаты исследования показывают, что интеграция современных технологий в образовательный процесс способствует повышению мотивации учащихся и качества усвоения учебного материала.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, естествознание, образовательный процесс, интерактивные методы, научное мировоззрение, логическое мышление, индивидуальный подход, эффективность обучения, личность учащегося.

KIRISH

Globalashuv sharoitida mamlakatimizda barcha sohalar qatori ilm-fan va ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kundalik hayotimizda o’zining muhim va ustuvor natijalarini bermiqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mazkur sohaga alohida e’tibor qaratilib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida fanning rolini yanada oshirish, innovatsiyalarni keng joriy etish, jumladan, matematika, kimyo, biologiya va geologiya sohalarini yanada rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ayni paytda ushbu fan sohalarining rivojiga qaratilgan bir qator Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, boshqa qonunosti me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Fikrimiz isboti sifatida mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati hamda ilm-fan natijadorligini oshirish maqsadida yana bir muhim huquqiy hujjat - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qarori qabul qilindi ^[1]. Mazkur qaror sohada yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarning kompleks yechimini belgilab berdi. Unda fanlarning o'qitilishidan tortib iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyotidagi o'rnigacha, shuningdek, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning bosqichlari, ko'lam va amalga oshirish mexanizmlari aniq ko'rsatib berildi.

Qarorga muvofiq, respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashgan 14 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish jarayoni boshlab yuborildi. Shu bilan birga, Abu Ali ibn Sino nomidagi Yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatining maqomi ushbu maktablar maqomiga tenglashtirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

BBB (Bilardim - Bildim - Bilmoqchiman) o'yini

Bu o'yinni "Suv - hayot manbai", "Gigiyena va ozodalik" kabi mavzular o'tilgandan so'ng o'ynash mumkin. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Uchala guruhga ham jadval beriladi. Uch ustundan iborat bo'lgan jadvalning birinchi ustuniga mustaqil tarzda suv haqida bilganlarini yozish tavsiya etiladi. Ikkinchi ustunga dars davomida hamda darslikdan bilib olgan bilimlarini yozadilar. Uchinchi ustunga esa imkon qadar bugungi kun talablari, muammolari va bilishi zarur bo'lgan bilimlar haqida yozadilar. Masalan: Bilardim - Bildim - Bilmoqchiman.

"Enyerjaynyer" o'yini

Bu o'yindan "Ob-havo", "Qish", "Yil fasllari" kabi mavzular o'tilganda foydalanish mumkin. O'quvchilar doira shaklida turib oladilar. O'qituvchi o'rtada turib, qo'l harakatlari orqali tabiat hodisalarini avval sekin, so'ng tezlashgan holatda ko'rsatadi. O'quvchilar soat mili bo'ylab ushbu harakatlarni so'zsiz davom ettiradilar.

1. *Shamol* (qo'llar bir-biriga sekin ishqalanadi, so'ng bu harakat tezlashadi).
2. *Yomg'ir* (qo'llar qarsillatiladi).
3. *Jala* (qo'llar chirmashtirilib, yelkalariga uriladi).
4. *Do'l* (tizzalarga shapatilab uriladi).

Harakat asta-sekin teskarisiga qaytariladi.

"O'z guruhingni top" o'yini. O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib, o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. *Mushuk* (miyov-miyov).
2. *Kuchuk* (vov-vov).
3. *Xo'roz* (qu-qu-qu-qu).
4. *Sigir* (mo'-mo').

Guruhga bo'linib olganlaridan so'ng, guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so'zlab beradilar.

"Klaster" metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. "Klaster" metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miyasi faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.

"Klaster" metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.



“6 × 6” metodi

“6 × 6” metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash va ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradi va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladi.

“6 × 6” metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, har bir o'quvchi qisqa vaqt (15-20 minut) davomida ham munozara qatnashchisi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

“6 × 6” metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.
2. 6 ta varaqqa turli xil 6 ta topshiriq yozib chiqiladi. Varaqlarga I dan VI gacha rim raqami yozib qo'yiladi. Bu varaqlar 6 ta stolning har biriga qo'yib chiqiladi.
3. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutadi. Har bir o'quvchiga 1 dan 36 gacha raqamlangan varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Bu varaqlarda rim raqami bilan stol raqami ko'rsatilgan bo'ladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchadagi rim raqami bilan ko'rsatilgan stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.
4. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi stol ustiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish uchun ma'lum vaqtni (5-10 minut) belgilaydi va munozara jarayoni boshlanganini e'lon qiladi.
5. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.
6. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng, belgilangan vaqt (5-10 minut) ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning kelajakdagi ta'limi va hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu bosqichda sifatli ta'lim berish nihoyatda muhimdir.

Ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqich hisoblanganligi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. O'quvchilarni o'qitish sifati ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq bo'ladi. Chunki bola aynan shu yosh davrida faollik va mustaqillikni rivojlantiradi, atrof-muhitni idrok etishni o'rganadi hamda o'quv faoliyatiga moslashadi. Bolaning ta'lim olamiga dadil kirib borishi uchun ushbu bosqichda erkin va qulay sharoit yaratish, uning salomatligi hamda emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim dasturlaridan foydalangan holda nafaqat tabiiy fanlarni, balki barcha fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalarini joriy etish orqali dars jarayonining rivojlanib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi keng qo'llanila boshlandi ^[5].

“Media” atamasi lotin tilidagi medium soʻzidan olingan boʻlib, “vositachi”, “aloqa vositasi” maʼnolarini anglatadi. Mazkur atama XX asr boshlarida ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qoʻllanilgan^[4].

Tabiiy fanlar real hayotdagi jarayonlarni oʻrgatuvchi fanlar sirasiga kiradi. Masalan, suv aylanishi, yorugʻlikning sinishi, hayvonlar va oʻsimliklar hayoti kabi mavzularni videoroliklar, animatsiyalar yoki virtual tajribalar yordamida koʻrsatish oʻquvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qiladi. Interaktiv taqdimotlar, raqamli tajriba dasturlari (masalan, PhET simulyatsiyalari) hamda elektron testlar orqali oʻquvchilar oʻz bilimlarini mustahkamlab boradilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga tabiiy fanlarning nazariy tushunchalarini tushuntirishda 3D modellar, animatsiyalar va videolar yordamida murakkab jarayonlarni bolalarga oson va qiziqarli tarzda yoritish mumkin.

Tajriba va laboratoriya ishlarini tashkil etishda virtual laboratoriyalardan foydalanish tajribalarni bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitda oʻtkazish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari yordamida laboratoriya jihozlari yetishmasligi muammosi ham bartaraf etiladi. Shu usulda tashkil etilgan virtual laboratoriyalardan foydalangan 4-sinf oʻquvchilari anʼanaviy usulda taʼlim olgan oʻquvchilarga nisbatan mavzularni 30 foiz tezroq oʻzlashtirgani aniqlangan.

Interaktiv test va mashgʻulotlar, elektron darsliklar, test tizimlari hamda onlayn oʻyinlar oʻquv jarayonini yanada mustahkamlaydi. Kahoot, Quizizz, turli test va viktorinalar orqali oʻquvchilar bilimini qiziqarli tarzda baholash imkoniyati yaratiladi. Interaktiv testlardan foydalangan oʻquvchilarning bilim darajasi anʼanaviy testlardan foydalangan oʻquvchilarga nisbatan 29 foiz yuqori natija koʻrsatgani aniqlangan.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tabiiy fanlar taʼlimida sifatni oshiradi, oʻquvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtiradi va ularning darsga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan darslar oʻquvchilarning bilim olishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi hamda ularning faolligi, mustaqil oʻrganish koʻnikmalari, tezkor fikrlashi va ilmiy tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelajakda taʼlim jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari 6-10 yosh oraligʻidagi bolalar boʻlib, bu yosh davri psixologik, fiziologik va aqliy rivojlanishning oʻziga xos bosqichi hisoblanadi. Ular koʻproq harakatchan, tez zerikuvchan, hissiy taʼsirchan va oʻyin faoliyatiga moyil boʻladilar. Shuning uchun dars jarayonida faqat ogʻzaki yoki kitob asosidagi taqdimotlar bilan cheklanib qolish ularning eʼtiborini uzoq vaqt davomida saqlab turish uchun yetarli boʻlmisligi mumkin.

Axborot texnologiyalarining qoʻllanilishi aynan mana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni jonlantirish va oʻquvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilish imkonini beradi. Vizual materiallar, harakatlanuvchi tasvirlar, tovushlar va animatsiyalar bolaning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi hamda oʻrganish jarayonini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy bolalar texnologiyalar bilan ulgʻayayotgan “raqamli avlod” vakillari hisoblanadi. Ular kompyuter, planshet va telefon kabi qurilmalarni bemaʼalol boshqaradilar, turli ilovalar va oʻyinlar orqali maʼlumotni tezroq qabul qiladilar. Darslarda ushbu qurilmalardan maqsadli foydalanish oʻquvchilar uchun tanish va qiziqarli muhit yaratadi.

Shuningdek, oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan oʻquv dasturlari (masalan, interaktiv taʼlim ilovalari, oʻyin shaklidagi testlar va virtual tajribalar) orqali ularning oʻzlashtirish darajasini oshirish mumkin. Darsda texnologiyalardan foydalanish orqali oʻquvchilar mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, savol berish va javob izlash kabi faoliyatlarga ham jalb etiladi.

Amaliy misol

Mavzu: “Suvning holatlari” (2-sinf, Tabiiy fanlar)

Texnologiya: Interaktiv taqdimot (PowerPoint) va animatsion video.

Izoh: Dars boshida suvning uch holati - suyuq, qattiq va gaz holatlari haqidagi animatsion video namoyish etiladi. Har bir holatga oid tasvirlar harakatli effektlar yordamida tushuntiriladi. Keyinchalik oʻqituvchi PowerPoint dasturi orqali holatlarning real hayotdagi koʻrinishlarini (muz, bugʻ, yomgʻir) rasm va qisqa audio izohlar bilan tushuntiradi. Oʻquvchilar topshiriq sifatida har bir holatga mos misollarni aniqlab, elektron doskada joylashtiradilar.

Muammolar va yechimlar

Axborot texnologiyalarining tabiiy fanlar darslarida samarali qoʻllanilishi uchun qulay shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Afsuski, amaliyotda bu yoʻnalishda qator muammolarga duch kelinmoqda.



O'qituvchilarning AKT bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi

Muammo: Ba'zi boshlang'ich sinf o'qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga yetarli darajada ega emaslar yoki bu borada amaliy tajribalari kam.

Yechim:

1. Muntazam malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etish;
2. O'qituvchilar uchun amaliy yo'riqnomalar hamda videoqo'llanmalar yaratish;
3. Tajribali o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish (metodik burchaklar, ochiq darslar va mahorat mashg'ulotlari orqali).

O'quvchilarni darsdan chalg'ituvchi omillar

Muammo: Texnologiyalar noto'g'ri yoki haddan tashqari ko'p qo'llanilganda o'quvchilarning e'tibori asosiy mavzudan chalg'ishi mumkin.

Yechim:

1. Texnologiyalardan maqsadli va muvozanatli foydalanish, ya'ni ularni darsning faqat zarur bosqichlarida qo'llash;
2. Vizual, audio va o'yin elementlarini dars maqsadlariga xizmat qiladigan tarzda tanlash;
3. Texnologiyani asosiy maqsad emas, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qo'llash hamda asosiy e'tiborni mazmunli o'qitishga qaratish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dars jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tashkil etishga xizmat qilmoqda. Texnologiyalar vositasida o'quvchilar ilmiy tushunchalarni real hayot bilan bog'lash hamda ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, yosh bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan raqamli resurslar ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonda texnik ta'minot, internet imkoniyatlari hamda o'qituvchining texnologik savodxonligi kabi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mavjud muammolarga qaramasdan, ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib, ularning mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi, ilmiy dunyoqarashi kengayadi va ta'lim samaradorligi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori "Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim uchun tabiiy fanlar o'quv dasturi. - Toshkent, 2021. - 64 b.
3. Hamdamov I. H., va boshq. Tabiiy fanlar zamonaviy konsepsiyasi. - Toshkent, 2007. - 156 b.
4. Sharipova D., Xodiyeva D., Shirinov M. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi: darslik. - Toshkent, 2018. - 240 b.
5. Nuritdinova M. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2005. - 192 b.
6. Malikova Y. V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. III-IV qism. - Toshkent: Novda Edutainment, 2023. - 120 b.
7. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 г. № ПП-4884 "О мерах по внедрению цифровых образовательных технологий". - Ташкент, 2020.
8. Министерство народного образования Республики Узбекистан. Учебная программа по естественным наукам для начального образования. - Ташкент, 2021.
9. Хамдамов И. Х. и др. Современная концепция естественных наук. - Ташкент, 2007.
10. Шарипова Д., Ходиева Д., Ширинов М. Естествознание и методика его преподавания: учебник. - Ташкент, 2018.
11. Нуриддинова М. Методика преподавания естествознания. - Ташкент: Ўқитувчи, 2005.
12. Маликова Ю. В. Естественные науки: учебник для 3 класса общеобразовательных школ. Ч. III-IV. - Ташкент: Novda Edutainment, 2023. - 120 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.